O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva

2021 yil “28” 08 ____________

# O‘RGANILAYOTGAN MINTAQA (MAMLAKAT) IJTIMOIY ANTROPOLOGIYASI FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| Ta’lim sohasi: | 220000 – Gumanitar fanlar |
| Mutaxassislik: | 70230501 –Etnografiya, etnologiya va antropologiya |

**Toshkent – 2021**

| | |
|---|---|
| **7.** | O‘quv dasturi “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil “27” 08 dagi “1” – sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202_ - yil “28” 08 dagi “1” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas‘ul:**<br>B.A.Odilov - TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>A.X. Doniyorov– TDSHU professori, t.f.d., prof.<br>A.R. Qayumov – O‘zRFA Tarix instituti, Etnologiya va antropologiya markazi katta ilmiy xodimi, t.f.n., dots. |



| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| OMIA104 | 2021-2022 | 1 | 4 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta‘lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| majburiy | O‘zbek | | 4 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta‘lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | O‘rganilayotgan mintaqa (mamlakat) ijtimoiy antropologiyasi | 60 | 60 | 120 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarga ijtimoiy antropologiya fani va uning rivojlanish bosqichlari, maktablari, tadqiqot uslublari haqida tushuncha berish, Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik tasniflanishi, ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liqligi, ijtimoiy psixologiya, turli submadaniyatlarni, tashkilotlarni va boshqalarni ijtimoilashuvga ta'sirini tushuntiradi, shuningdek, sohaga oid tadqiqotlarni olib borish va o‘quv amaliyotiga tayyorlashdan iborat.

**Fanning vazifasi** - nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ijtimoiy antropologik tadqiqotlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari, tadqiqotlarning tashkil etish, dolzarb yo‘nalishlarni belgilash, antropologik tadqiqotlarning dolzarb muammolari va ahamiyatini ochib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. O‘rganilayotgan mintaqa (mamlakat) ijtimoiy antropologiyasi faniga kirish, fanning maqsad va vazifalari.**

Ijtimoiy antropologiya tushunchasi va uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi, ijtimoiy antropologiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlari, zamonaviy antropologiyada: mintaqaviy va nazariy ixtisoslashuv, madaniyatlar orasidagi farqli jihatlar, dunyo xalqlari madaniyatlarini tizimilashtirish muammolari, klassik etnografik tadqiqotlarning ijtimoiy antropologiya fani uchun ahamiyati, E.Dyurgeym va Marsel Moss: ijtimoiy antropologiya asoschilari sifatida; Klod Levi-Stross, F.Boas, A.Redkliff-Braun va Bronislav Malinovskiy, Evans-Prichardlarning ijtimoiy antropologiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi.

**2-mavzu. Antropologiya yo‘nalishlari**

Ijtmioiy (madaniy), arxeologik, biologik (jismoniy), lingvistik antropologiya yo‘nalishlari.

**3-mavzu. Ijtimoiy antropologiya tarixi.**

Antik va o'rta asrlar davrida madaniy-antropologik qarashlarning shakllanishi. Etnotsentrizm. Sayyohat va antropologiya: Afanasiy Nikitin va Marko Polo. Buyuk geografik kashfiyotlar davri va ijtimoiy (madaniy) antropologik ma'lumotlarning to'planishi kuchayishi. Yevropa uyg'onish davrida madaniy antropologiya. Volter, J.J. Russo va M.A. de Kondorsening insoniyat tafakkuri rivojlanishi xususidagi fikrlari. Romantizm i etnografiya.

**4-mavzu. Ijtimoiy-madaniy antropologiya fanida nazariyalar**

Antik davr va Qadimgi Sharq davlatlarida antropologik nazariyalar. O'rta asr Yevropasida antropologik nazariya. XIX asr boshi va XVI asrda Evolyutsionizm. Diffuzionizm. Sotsiologik va psixologik yo'nalishlar. Funksionalizm va strukturalizm. «Shaxs va madaniyat» maktabi. Postmodernizm.

**5-mavzu. Markaziy Osiyo mintaqasi kesimida tadqiqotlar tashkil etishning ahamiyati.**

Antropologiya fanida mintaqaviy tadqiqotlar o'tkazilishining ahamiyati, Markaziy Osiyoga hududiy yondashuv va uning dolzarb muammolari, hududiy tadqiqotlarni o'tkazishda "tuzemniy", "mestniy" va "gibrit" tushunchalariga e'tibor, G'arb ilm fanida Markaziy Osiyo antropologiyasi, Markaziy Osiyoda faoliyat yurutuvchi antropologiya markazlari.

**6-mavzu. Markaziy Osiyo mintaqasida madaniyat rivojining asosiy bosqichlari va qonuniyatlari**

Madaniyat avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy bog'lanishning muhim xalqasi. Madaniy davrlar tushunchasi. Ibtidoiy jamiyatning shakllanishi va sotsial tuzilishi. Tarix va madaniyat tiplarining mintaqalashtirilishi. Madaniyat va sivilizatsiya. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Ma'naviy madaniyatning tarkibiy tuzilishi. "Madaniy hayot" va "Ijtimoiy hayot" tushunchalari. Sotsiomadaniyat, submadaniyat, sub'ektiv madaniyat, ekologik madaniyat va texnomadaniyat. Jahon xalqlarining madaniyatidagi o'ziga xoslik va umumiylik. Hozirgi sharoitda universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi. XX asr boshlarida madaniyat rivojidagi yangi yo'nalishlar.

**7-mavzu. Markaziy Osiyoda etniklik tushunchasi.**

Etnos va etniklik, etnos muammosi bilan bog'liq qarashlar va nazariyalar, hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyligi Markaziy Osiyo xalqlarining milliy xarakteri, globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy o'ziga xosligini rivojlanishi, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy o'zligi: tarixiy madaniy asoslari va shakllanishi.



3. Минюшев Ф.И. Социальная антропология // Учебное пособие для студентов высших учебных, 2005. с. 288, 2004. ISBN: 5-8291-0465-2, 5-902357-13-6.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va forovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
8. Evans-pritchard e. E. Social Anthropology// london : Cohen & West ltd. p.p. 140.
9. Edmund Leach. Social Anthropology. 1982. p.p. 253.
10. Nikishenkov A.A. Istoriya britanskoy sotsialnoy antropologii – Spb.: Iz datelsnvo Sank-Peterburgskogo universiteta, 2008. — 496 s.
11. Alan Barnard. Social Anthropology: Investigation Human Social Life. M., ИЭА RAN, 2009. - 244 c.
12. Antropologiya sotsialnix peremen. Issledovaniya po sotsialno-kulturnoy antropologii: sbornik st./[otv. red. E. Guchinova, G. Komarova]. –M.: (POSSPEN) 2011. s. 758.
13. Belik A.A. Kulturnaya (Sotsialnaya) Antropologiya. Uchebnoe posobiye. Moskva, 2009. -329 s.

**Axborot manbalari:**

14. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
15. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. www.krugosvet.ru
16. www. vk.com
17. www.centrasia.ru
18. www.yandex.ru

| | |
|---|---|
| | 14. Angliyada gipperdiffuzionizm (Eliot-Smit, Perri).<br>15. Madaniyatni o'rganishda biologik yo'nalish va uning ikki asosiy shakllari.<br>16. Madaniyatni o'rganishda irqiy-antropologik yo'nalishning o'rni.<br>17. Gobino g'oyalari va O. Ammon va J. Lapuj tadqiqotlari. |
| **3.** | **V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetentsiyalar)**<br>**Magistr bilishi kerak**:<br>• Ijtimoiy antropologiya asoslari muammolarini yo'nalishlari: amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va bajarilishi lozim bo'lgan muammolar xaqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;<br>• Ijtimoiy antropologik tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish **ko'nikmalariga ega bo'lish**;<br>• Talaba Ijtimoiy antropologiya asoslari fani doirasida ilmiy tadqiqotlar bajarish, tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish, tarixiy ilmiy bilimlarning rivojlanishida Ijtimoiy antropologiya faning o'rni va ro'li, ahamiyati xaqida malakaga ega **bo'lishi kerak.** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Алан Барнард 2009. Социальная антропология: исследуя социальную жизнь людей. // М., ИЭА РАН, 2009. - 244 с. с илл. - 13ВК 5-201-14592-2<br>2. Кравченко А.И. Социальная антропология: Учебное пособие для вузов. — 2-е изд. — М.: Академический Проект, 2005. - 544 с. («Gaudeamus»). ISBN 5-8291-0529-2 (Академический Проект). |



| | |
|---|---|
| | **8-mavzu. Ijtimoiy antropologiyada identiklik tushunchasi.**<br>Antropologik tadqiqotlarda zamonaviy tendensiyalar, identiklik tushunchasi, G'arb antropologik tadqiqotlarida Markaziy Osiyo xalqlari identikligi masalasi, mintaqa xalqlarining identikligini istiqboli.<br><br>**9-mavzu. Markaziy Osiyoda oila, nikoh va qarindoshlik munosabatlari**<br>Oila, nikoh munosabatlari. Oila va nikoh turlari, jinslar orasida mehnat taqsimoti, ularning insoniyat taraxiy taraqqiyoti davomida o'zgarib borishi. Poligamiya, poliandriya, ekzogamiya, insest, nikohning zamonaviy turlari. Zamonaviy oila. Nikoh qoidalari. Nikoh va ajralishlar. Oilaning tipik bo'lmagan shakllari. Tarixiy istiqbolda qarindosh-urug'chilik.<br><br>**10-mavzu. Markaziy Osiyoda gender munosabatlari**<br>Antropologiyada jins problematikasi. Gender-ijtimoiy-antropologik fenomen sifatida. Feministik proyektning asoslari. Dunyoda feministik xarakatlar. Emansipatsiya.<br>Ijtimoiy makom va ijtimoiy tengsizlik. «Ijtimoiy makom» tushunchasi. Tengsizlikning ijtimoiy madaniy va iqtisodiy asosi. Ijtimoiy stratifikatsiya va uning ko'rinishlari. Tengsizlik konsepsiyalari.<br><br>**11-mavzu. Markaziy Osiyoda globallashuv va madaniy o'zgarishlar**<br>Globallashuv sharoitida madaniyatni asrash muammolari. O'zaro madaniy ta'sir, globallashuv jarayonida madaniy taraqqiyotdagi transformatsiya masalari. Massmediya, zamonaviy ahborot vositalari xalqlarning turmush tarziga o'tkazayotgan ijobiy va salbiy ta'siri.<br><br>**12-mavzu. Sotsiogenez va jamoatchilik to'g'risida ilmiy qarashlar**<br>Insoniyatning sotsiogenezi haqida ilmiy qarashlar, Sotsiogenez bosqichlari, Jamoatchilik tushunchasi haqida umumiy ta'riflar , Jamoatchilik hayoti va demokratiya , Sotsiogenez, Mehnat taqsimoti, Antrobiologiyaviy Instinkt, Faoliyat o'zbeklarning bola tarbiyasiga doir an'analari misolida.<br><br>**13-mavzu. Din, «ibtidoiy tafakkur», sehrgarlik, marosimlar.**<br>Ijtimoiy antropologiyada din tushunchasi, "Ibtidoiy tafakkur" va Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy etiqod va marosimlari, sehrgarlik, Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy turmush tarzida shomonlik e'tiqodi.<br><br>**14-mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotida xo'jalik an'analarining tutgan o'rni.**<br>An'anaviy xo'jalik tushunchasi, Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy xo'jaligi shakllari, ijtimoiy hayot va an'anaviy xo'jalik, xo'jalik madaniy |

tiplar ilmiy konsepsiyasi.

**15-mavzu: Amaliy dala tadqiqotlari metodlari.**

Ijtimoiy antropologiya metodologiyasi va tadqiqot hamda tahlil metodlari: antropologik tadqiqotlar prinsiplari; analitik metodlar, tadqiqot dasturi; empirik tadqiqotlar ko'rinishlari; monografik tadqiqot; takroriy tadqiqot; dala tadqiqoti; hodisa tahlili; sotsiografiya; biografik metod; ilmiy eksperiment; sotsiodramaturgik va etnometodologik eksperimentlar; ijtimoiy-tarixiy eksperiment.

Empirik tadqiqot metodlari: ilmiy kuzatuvning farqli jihatlari; kuzatish turlari; bevosita kuzatuv metodi; etnograf va antropologlarning kuzatuvlari; kvaziantropologik kuzatuv; intervyu va suhbat metodi; intervyu tipologiyasi; formal va erkin intervyu, ularning foydali jihatlari; xujjatlarni umumiy tahlil qilish va ularni qo'llash sohalari.

So'rovnomalar. Tezkor etnografik baholash. Ehtiyojni baholash. Ijtimoiy ta'sirlarni baholash (social impact assessment, SIA). Fokus-guruhlar.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarida talabalar Ijtimoiy antropologiya fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Amaliy mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) ijtimoiy antropologiyasi asoslari faniga kirish, fanning maqsad va vazifalari.
2. Antropologiya yo'nalishlari
3. Ijtimoiy antropologiya tarixi
4. Ijtimoiy-madaniy antropologiya fanida nazariyalar
5. Markaziy Osiyo mintaqasi kesimida tadqiqotlar tashkil etishning ahamiyati
6. Markaziy Osiyo mintaqasida madaniyat rivojining asosiy bosqichlari va qonuniyatlari
7. Markaziy Osiyoda etniklik tushunchasi
8. Ijtimoiy antropologiyada identiklik tushunchasi
9. Markaziy Osiyoda oila, nikoh va qarindoshlik munosabatlari
10. Markaziy Osiyoda gender munosabatlari
11. Markaziy Osiyoda globallashuv va madaniy o'zgarishlar
12. Sotsiogenez va jamoatchilik to'g'risida ilmiy qarashlar
13. Din, «ibtidoiy tafakkur», sehrgarlik, marosimlar
14. Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotida xo'jalik aloqalarini tutgan o'rni



15. Amaliy dala tadqiqotlari metodlari

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalanadigan o'quv mashg'ulotlari.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Ijtimoiy antropologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi
2. Ijtmioiy antropologiyada tadqiqot usullari (Redkliff-Braun)
3. Ijtimoiy antropologiyada kuzatish usuli (B.Malinovskiy)
4. Madaniyat turlari va tiplari.
5. Evolyutsionizmning umumiy tavsifi madaniyatni o'rganishning usuli sifatida.
6. E.Teylorning animizm nazariyasi.
7. J.Frezer: magiya, din va fan o'zaro aloqasi.
8. Antropologiyaning sotsiologik maktabi. E. Dyurkgeymning ijtimoiy faktlarni o'rganish metodi.
9. Antropologiyaning sotsiologik maktabi. Levi-Bryulning nazariy konsepsiyasi.
10. Amerika tarixiy-madaniy maktabi: F. Boasning antropologik konsepsiyasi.
11. Diffuzionizmning umumiy tavsifi.
12. Germaniyada diffuzionizm (Ratsel va Grebner).
13. L. Frobeniusning Afrika madaniyatlarini diffuzionistik tahlili.